

BANK TIZIMIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL QILISHDA XALQARO STANDARTLARNI QO‘LLASH XUSUSIYATLARI

Tuychiyev Alisher

ALFRAGANUS University, IFD, Professor

Yangi O‘zbekiston – yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash, degani. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to‘liq qayta qurilmoqda, bozor mexanizmlarini amalda joriy etish boshlandi. Bugun elektron kartochkadagi pullarni bankomatlar orqali naqd pulga aylantirish, xorijiy valyutalarni sotib olish va kursdagi tafovut bilan bog‘liq muammolar tarixda qoldi.

Bu borada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qilingan amaliy ishlarning ko‘lami nihoyatda keng. Masalan, tadbirkorlik faoliyatiga aralashishni cheklashga alohida e‘tibor qaratilib, 114 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilingani biznes vakillarini erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun keng zamin yaratdi. Iqtisodiyotning erkin bozor munosabatlariga o‘tishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida mulkchilikning turli shakllari vujudga kelib, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalari xalqaro miqyosda kengaymoqda, tadbirkorlik faoliyatining barcha qatlamlarida moliyaviy va xo‘jalik faoliyati natijalaridan manfaatdorlik darajasi tubdan o‘zgarmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida aktsiyadorlik jamiyatlari va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatining yanada ravnaq topishi hamda ularning xalqaro miqyosdagi aloqalari ko‘laminin kengayishi va rivojlanib borishi nafaqat son, balki sifat jihatidan yuqori saviyadagi audit xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Ichki auditning asosiy maqsadi – mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishini ta‘minlash, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘ri yuritilishini tekshirish, mulkdorlar manfaatini himoya qilish va boshqaruv organlari tomonidan ularning manfaatlariga zid harakatlar qilinishining oldini olish, bunday holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda mulkdorlarni xabardor etishdan iborat. Ichki audit xizmati korxonada xodimlarining o‘z vazifalarini yanada samaraliroq bajarishlariga va shu bilan birga korxonaning ichki imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan to‘liqroq foydalanishga yordam beradi.

Ichki audit madaniy va huquqiy an‘analarning xususiyatiga qarab turli xil sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin; maqsadi, hajmi, murakkabligi va tuzilishi bilan farq qiluvchi tashkilotlarda; tashkilotning o‘zi xodimlari tomonidan ham, tashqi ijrochilar tomonidan ham. Ushbu farqlar muayyan vaziyatda ichki audit amaliyotiga o‘ziga xos xususiyatlarni yuklashi mumkin, shu bilan birga Standartlarga rioya qilish ichki auditorlar o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun muhim shartdir.

Standartlar, qoida tariqasida, qonunchilik darajasida qat‘iy belgilanmagan va

turli mamlakatlardagi tartibga soluvchilar odatda standartlarga "mos qilish" texnologiyasidan foydalanadilar. Standartlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan va professional uyushma tomonidan tasdiqlangan; ulardan foydalanish har qanday kompaniyada mumkin va tashkilotlar ulardan foydalanish yoki foydalanmaslikni o'zlari hal qiladilar.

Shu bilan birga, qoidalardan istisnolar, masalan, ayrim tarmoqlar va tashkilotlar turlarida ichki audit masalalarini tartibga soluvchi yanada qat'iy qonun hujjatlari shaklida bo'lishi mumkin. Xususan, Rossiya qonunchiligida kredit tashkilotlarida ichki audit faoliyati bilan bog'liq holda, Rossiya Bankining 2003 yil 16 dekabrda 242-P-sonli "KREDIT TASHKILOTLARI VA BANK GURUHLARIDA ICHKI NAZORATNI TASHKIL ETTIRISH to'g'risida" gi Nizomi talablari qo'llaniladi va bir qator cheklovlar/talablarni belgilaydi:

- Ichki auditning maqsadlari, vazifalari va funktsiyalarining aniq belgilangan ro'yxati, shu jumladan konsalting xizmatlari yo'q ;

- Ichki auditning funktsiyalarini uchinchi tomon tashkilotlariga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talab o'rnatilgan (kredit tashkilotida mutaxassislar bo'lmasa, bank guruhi ichidagi ayrim funktsiyalarni o'tkazish imkoniyati bundan mustasno);

- Ichki auditning bo'linmasi rahbariga ichki audit bilan bog'liq bo'lmagan vakolatlarni berish taqiqlanadi;

Kengashga taqdim etiladigan ma'ruzaning mazmuniga nisbatan davriylik va aniq talablar belgilandi.

Har bitta bank amalga oshirishini hohlaydigan faoliyat maqsadlari va ularni amalga oshirishi bilan bog'liq risklarga ega.

Ichki nazorat tizimi (INT) har qanday bankni boshqarishning ajralmas qismi bo'lsa ham, uni tashkil etishga me'yoriy talablar XX asrning oxirlarigacha mavjud bo'lmagan.

Xalqaro ichki audit standarti (XIAS) 2130 — «Nazorat»

“Ichki audit banklarda ichki nazorat tizimini samarali ishlashiga yordamlashishi, xususan, ichki nazorat tizimining samarasi va natijasini baholab, tizimni muntazam ravishda takomillashib borishiga ko'maklashishi zarur”.

2130.A1— *Ichki audit korporativ boshqaruv sohasida, kredit tashkilotlarining joriy faoliyatida va uning axborot tizimlarida mavjud bo'lgan risklar ustidan o'rnatilgan nazoratning mutanosibliigi va natijasini baholashi lozim, masalan:*

- *moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqidagi axborotning to'g'riligi va to'la-to'kisligini;*

- *bank faoliyati va dasturlarining samarasini va natijasini;*

- *aktivlarning butligini;*

- *qonunlar, normativ aktlar, rusumlar, tadbirlar va shartnoma majburiyatlari talablarini bajarilishini.*

2130.S1— *“Ichki auditor bank faoliyatiga bog'liq masalalarda maslahat berayotganda, korxonadagi ichki nazorat jarayonlarini baholash paytida olgan*

bilimlaridan foydalanishi zarur».

Auditorlik tadbirlarini rejalashtirishda va bajarishda, shuningdek, baholash va audit natijalarini taqdim qilishda ichki auditor korxonada tomonidan qonunlar va normativ aktlarga rioya qilinmasligi moliyaviy hisobotga katta ta’sir ko’rsatishi mumkinligini anglashi lozim. Lekin audit qonun va normativ aktlarga rioya qilinmagan barcha holatlarni aniqlashini kutib bo’lmaydi.

“Rioya qilmaslik” atamasi ostida korxonaning ataylab, shuningdek, bexosdan qonun va normativ aktlarga zid ravishda qilgan harakati yoki harakatsizligi tushuniladi. Bunday harakatlar sub’ektning o’zi yoki sub’ekt nomidan rahbariyat yo korxonada xodimlari amalga oshirgan operatsiyalarga taalluqlidir.

Ichki auditor qonunlar va normativ aktlarga rioya etilmagani faktlarining oldi olinmagani uchun javobgar emas, javobgar bo’lolmaydi ham. Shunday bo’lsa-da, yillik auditning o’tkazilishi noxush hodisalarning oldini olishga ko’mak beradi.

Ichki audit zarur darajada rejalashtirilishi va ichki audit standartlariga muvofiq ravishda o’tkazilishiga qaramay, auditda moliyaviy hisobotdagi ba’zi ahamiyatli buzib ko’rsatishlar aniqlanmay qolishi xatari hamisha bor. Korxonada faoliyatini boshqaruvchi qonunlar va normativ aktlar moliyaviy hisobotga unchalik ta’sir ko’rsatmasa va moliyaviy hisobotga aloqador axborot tizimlari tomonidan inobatga olinmasa, xatar darajasi oshadi.

XAS 200 standartiga binoan, auditor audit korxonaning qonun va normativ aktlarga rioya etganini shubha ostiga qo’yadigan sharoitlar va hodisalarni aniqlashi mumkinligini anglab, auditni professional ishonchsizlik nuqtai nazaridan rejalashtirishi va o’tkazishi lozim.

BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BAHOLSHNING XALQARO TAJRIBASI

Xasanova Xamida Xaydaraliyevna

*Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti Olmaliq filiali katta o’qituvchisi*

Bank tizimi faoliyatidagi integratsiya jarayonlari, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va iqtisodiy munosabatlarning kengayishi muqarrar ravishda avvalgilarini takomillashtirish va bank risklarini tartibga solishning yangi usullarini yaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Turli mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va bank risklarini tartibga solish turli usullar yordamida amalga oshiriladi.

Masalan, Niderlandiya, Italiya, Rossiyada bank nazorati faqat markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Kanada, Shveytsariyada markaziy bankdan alohida nazorat qiluvchi maxsus organlar tashkil etiladi. Germaniya, AQSH, Yaponiya va Fransiyada markaziy bank nazorat majburiyatlarini davlat idoralari bilan birgalikda taqsimlaydi.